

The Mukhtar Ashrafi House-Museum: The Visual Memory of Uzbek Musical Heritage

Ismoilova Fotima Izzat qizi

*1st-year Master's student, National Institute of Fine Arts and Design named after
Kamoliddin Bekhzod*

Abstract

This article examines the structure of the exposition of the Mukhtar Ashrafi House-Museum, its main historical and cultural exhibits, and the composer's role in the development of Uzbek professional musical art. Based on exhibition materials, the study analyzes Mukhtar Ashrafi's creative path, his symphonic and operatic heritage, as well as the formation process of Uzbek musical culture. In addition, the scientific, educational, and cultural-educational significance of the museum is revealed.

Keywords

Mukhtar Ashrafi, house-museum, exposition, Uzbek music, cultural heritage, symphonic composition, opera art, museology, archival materials, cultural memory.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi ekspozitsiyasining tuzilishi, undagi asosiy tarixiy va madaniy eksponatlar hamda bastakorning o'zbek professional musiqa san'ati rivojidadagi o'rni yoritiladi. Ekspozitsiya materiallari asosida Muxtor Ashrafiyning ijodiy yo'li, uning simfonik va operaviy merosi, shuningdek, o'zbek musiqa madaniyatining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, muzeyning ilmiy, ma'rifiy va madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Muxtor Ashrafiy, uy-muzey, ekspozitsiya, o'zbek musiqasi, madaniy meros, simfonik ijod, opera san'ati, muzeyshunoslik, arxiv materiallari, madaniy xotira.

Muzeyga kiraverishda portretidan sizga irodali, dono, biroz charchoq ifodasi bilan qarab turgan sochlari oqargan kishi boqadi. Bu insonning nomi o'zbek sovet musiqasi tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Uning hayot bosqichlari – bu O'zbekiston musiqiy madaniyati tarixining sahifalaridir. Birinchi orkestr partiturasidan boshlab, o'zbek



sahnasidagi birinchi opera spektakligacha, ilk o‘zbek operasi va simfoniyasigacha – bularning barchasi uning nomi bilan chambarchas bog‘langan...

Ekspozitsiya Ashrafiyning hayot yo‘li boshlangandan to 1945-yilgacha bo‘lgan davrdan boshlanadi. Muxtor Ashrafiyning bolalik yillari Buxoroda, taniqli xalq hofizi va dutorchi mashshoq Ashrafxon hofiz xonadonida kechgan. Ekspozitsiyaga Ashrafiy voyaga yetgan uy ko‘hna Buxoro shahrining ko‘chalarining birida hamon saqlangan bo‘lib, uyda musiqachining qarindoshlari istiqomat qilishadi. Ashrafjon hofizning saqlanib qolgan yagona fotosurati, oilaviy yodgorlik – otadan qolgan tambur bilan to‘nga, shuningdek, musiqachining oilasi yashagan uyining maketi joylashtirilgan¹.

1924-yilda M.Ashrafiy otasining do‘sti dutorchi mashshoq Tohirjon Davlatzoda qistovi bilan Buxorodagi Sharq musiqa maktabiga o‘qishga kirdi. Ekspozitsiyada Sharq musiqa maktabida olingan guruh bilan tushilgan noyob fotosurat xam bor. Hujjatlari orasida Buxoro Sharq musiqa maktabini bitirganlik haqidagi 1929-yil 28-may sanasi bilan attestat ham mavjud.

Samarqanddagi O‘zbekiston musiqa va xoreografiya oliygohi o‘qish yillari yosh musiqachi o‘shining birinchi bosqichidir². O‘sha yillarda unga yirik musiqachi, folkorchi va jamoat arbobi N.N. Mironov rahbarlik qilar edi. Suratlarda – N.N.Mironov xalq musiqa yozuvi ma’nosini chiqarayotgani, Inmuzxoruz aspirant yosh Ashrafiy tasvirlangan. Guruh bo‘lib tushilgan suratlar ayniqsa qiziqarli. Ulardan birida M.Ashrafiy kursdoshlari T.Sodiqov va Sh.Ramazonov bilan birga tushgan. Huddi shular o‘zbek musiqasida simfonik partitura – 1930-yilda yaratilgan “Sadrash” marshining mualliflaridir. Boshqa fotosuratda M.Ashrafiy Inmuzxoruz simfonik orkestri bilan birga. Surat orqasida kompozitor qo‘li bilan: “Muxtor Ashrafiy birinchi bor dirijyorlik pultida” deb yozib qo‘yilgan. O‘qish davri Moskva konservatoriya qoshidagi O‘zbek opera studiyasida o‘quv yillari olingan fotosuratlar bilan nihoyasiga yetadi. Fotosuratlarda

¹ Гласс Ю. Тошкент музейлари (справочник – йўл кўрсаткич) – Т.: Тошкент, “Ўзбекистон”, 1983. – 70 бет.

² Мурадова З. Мухтар Ашрафи: Годы становления музыканта. // Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётидан саҳифалар (мақолалар тўплами). Т.: Тошкент, 2015. – 34 стр.



Moskva konservatoriyasining o'qituvchilari N.I.Speranskiy, A.N.Askochinskiy, N.T.Rayskiy, o'quvchilardan Halima Nosirova, Muhiddin Qori Yoqubov, Karim Zokirov, Muxtor Ashrafiy aks etgan. Muxtor Ashrafiy Moskva konservatoriyasida 1934-36 yillarda o'qidi.

O'z faoliyatini esa Toshkentda 1930-yilda O'zbek musiqali teatrida orkestr musiqachiligidan boshladi. 1931-yilda musiqa sohasi bo'lim mudiri qilib tayinlanadi. O'shanda u 19 yoshda edi. M.Ashrafiy teatr faoliyatining boshlanishi suratlarda aks etgan³. Shulardan birida yosh musiqachi Muhiddin Qori Yoqubov bilan suratga tushgan. Kompozitor ijodiy yo'lining boshlanishi asarlarining qo'lyozmalarida, afishalar va nota nashrlarida o'z aksini topgan. Vitrinaga "Qurilish marshi" – o'zbek kompozitori tomonidan birinchi bor mustaqil ravishda yaratilgan simfonik partitura qo'lyozmasining bir qismi qo'yilgan. Ashrafiy asarining birinchi bor yozib olingan – marsh ovozli plastinkasi ham shu yerda. Stenddan esa "Ichkarida" musiqali dramasi afishasi o'rin olgan. Shuningdek, vitrinada Ashrafiyning tugatilmagan "To'lqin" opera notalarining homaki nusxalari bor.

1937-yilda M.Ashrafiy O'zbek musiqali teatriga badiiy rahbar va bosh dirijyor qilib tayinlandi. Shu yilda Moskvada O'zbekiston adabiyoti va san'ati "o'n kunligi" bo'lib o'tdi. Stendlarda – "O'n kunlikda" Ashrafiy boshchiligida namoyish etilgan. "O'n kunlik" davomida yosh o'zbek dirijyori juda kuchli tassurot qoldirdi. Musiqa uslubini juda yaxshi bilishlik, o'ziga nisbatan xotirjam va ishonch, dirijyorlik imo-ishoralari aniq va muloyim olib borishlik, nafis noziklik-bularning hammasi yosh Ashrafiyda haqiqiy dirijyorlik iste'dodi mavjudligidan guvohlik berib turibdi" – deb ta'kidlangan edi "Izvestiya" ro'znomasi⁴.

Stendlarda – o'n kunlikda Ashrafiy boshchiligida namoyish etilgan "Farxod va Shirin" musiqali dramaning afishalari, o'n kunlikda qatnashgan O'zbekiston SSJ san'at

³ Голендер Б. Мухтар Ашрафи – Джадидот музыка. // Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданият ҳаётидан саҳифалар (мақолалар тўплами). Т.: Тошкент, 2015. – 39 стр.

⁴ Мухтор Ашрафий уй-музеи ма'lumotnomasi (murojaat sanasi 21.12.2022)



arboblarining surati bilan birga ro‘znomalardan qirqib olingan maqolalarning namunalari joylashgan. Mamlakat yosh ijodkorlariga bag‘ishlab “Музыка” ro‘znomasida yoritilgan sahifa ham shu yerda. Sahifada E.Gigels, Ya.Zak, Ya.Flier va boshqalar surati bilan yonma-yon M.Ashrafiy ham bor. Ashrafiy o‘n kunlikdan qaytgach birinchi o‘zbek operasini yaratishdek ma’suliyatni ishni amalga oshirishga kirishdi. Bu ishni u Moskva konservatoriyasida ta’lim olgan ustoz S.Vasilenko bilan birgalikda qilishga kirishdi. Muallifning nota qo‘lyozmalari, opera sahnalaridan tushirilgan fotosuratlar, M.Ashrafiy rahbarligidagi orkestr repetitsiyasidan olingan suratlar shu davr haqida hikoya qiladi. S.N.Vasilenkoning esdalik so‘zi yozilgan fotoportret ham shu yerda. Surat orqasiga: “Mening qarddon do‘stim va shogirdim Muxtor Ashrafiyga. Uni qalban sevuvchi va sodiq do‘sti S.Vasilenko”, – deb yozilgan. Fotosuratlardan birida Ashrafiy dramaturg K.Yashin bilan birgalikda opera librettosi ustida ishlab turgan payti tushirilgan. Yonma-yon “Bo‘ron” operasining premyera dasturi. Shuningdek, ekspozitsiyaga operaning IV ko‘rinishidan sahna diagrammasi joylashtirilgan.

Muzey eksponatlari orasida 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlariga oid noyob hujjatlar mavjud. Ular orasida konsertlarning afishalari va dasturlari, ilk o‘zbek opera hamda simfonik asarlarining qo‘lyozmalari, fotosuratlar va mashhur sovet musiqa madaniyati namoyandalari – D.Shostakovich, A. Xachaturyan, Yu. Shaporin, A. Gigels, O. Taktakishvili, R. Glier va boshqalar imzo chekkan notalar bor. M. Ashrafiyning hayotining turli davrlarida u siyosiy arboblardan – J. Neru, M. Kalinin, bastakorlar M. Shteynberg, A. Gauk, V. Muradeli, T. Sodiqovlar bilan birga suratga olingan.

Ashrafiyning urush va g‘alaba mavzusidagi “Qahramonlik simfoniyasi” va “G‘oliblarga shon-sharaflar” simfoniyasining yaratildi. Suratlarda urush yillari Toshkentga ko‘chirilgan Leningrad konservatoriyasining o‘qituvchi va o‘quvchilari orasida bo‘lgan kompozitor M.Ashrafiyning do‘sti va murabbiysi kompozitor M.O.Shteynberg bilan tushgan surati aks etgan⁵. Bundan tashqari, ekspozitsiyada Toshkentda (1942) “Qahramonlik

⁵ Слоним А. Музей Мухтара Ашрафи – традиции и будущее. //Музеи в изменяющемся мире: состояние, проблемы, перспективы.(материалы международного научно-практической конференции) 2020 год 16 июня, - 35 стр.



simfoniyasi” birinchi ijrosining va Moskvada (1943) o‘zbek simfonik musiqasi konsertining afishasi, AQSHda (1945) Birinchi simfoniyaning ijrosi to‘g‘risida “Pravda Vostoka” ro‘znomasidan qirqib olingan maqola, kompozitor “Qahramonlik simfoniyasi”ni yaratganligi uchun sazovor bo‘lgan SSJI davlat mukofoti sovrindorligi diploma ham joylashtirilgan. Shuningdek, birinchi zalda M. Ashrafiyning birinchi bor qilgan dirijyorlik kamzuli va tayoqchasi, xona markazida esa kompozitor royali, qadimiy zang chaluvchi soat joylashgan.

Muzeyning ikkinchi qavatiga zinalardan chiqarkan, yo‘lak devorlarida Yu.Yelizarov mo‘yqalamiga mansub M.Ashrafiyning katta portreti, Tojikiston san’at arboblari tomonidan tortiq etilgan A.Rudakiy va S.Ayniy siymosi tasvirlangan gilam ko‘rk berib turgani yaqqol e’tiborni jalb etadi.

M. Ashrafiy 1948-yilda o‘zining san’at ijrochilik mahoratini Leningrad konservatoriyasida takomillashtirishga ahd qiladi. U taniqli dirijyor B. Xaykin sinfida o‘qiydi, imtihonlarni muddatdan oldin toshpiradi va simfonik dirijyorlik mutaxassisligi bo‘yicha Leningrad konservatoriyasining diplomini oladi⁶. Ekspozitsiyaga qo‘yilgan materiallar orasida Leningrad konservatoriya opera studiyasining Ashrafiy boshchiligida ijro etilgan “Karmen” operasining repertuar rejasi, o‘zbek dirijyorining spektaklni sahnalashtiruvchilar va ijrochilari bilan tushgan surati bor. Bu ikkinchi zal kiraverishida joylashgan ilk eksponatlardir.

1951-yilda Ashrafiy O‘zbekiston adabiyoti va san’atining Moskvada bo‘lib o‘tgan Ikkinchi o‘n kunligida qatnashdi. U o‘n kunlik rahbarlaridan biri bo‘lgan, konsertlarda dirijyor sifatida ishtirok etgan. Suratlarda Ashrafiy Ittifoq uyining Kolonna zalidagi chiqishi, kompozitorning O‘zbekiston va boshqa ittifoqdosh mamlakatlarning madaniyat arboblari R.Glier, V.Vlasov, V.Fere, K.Yashin, H.Nosirova, G.Izmaylovalar bilan tushgan fotonusxalari aks etgan. O‘n kunlikda Ashrafiyning Bosh Turkman kanali qurilishiga

⁶Аймурова Н. Через призму архитектуры// Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётидан саҳифалар (мақолалар тўплами), 2015. – 46 бет.



bag'ishlangan yangi asari "Baxt haqida qo'shiq" kantatasi ijro etilgan. Ekspozitsiyada kantataning nota nashri, kompozitor "Baxt haqida qo'shiq"ni yaratganligi uchun sazovor bo'lgan SSJI Davar sovrining laureatlik diploma, sovet san'at arboblarning tabrik telegrammalari qo'yilgan.

1957-yilda kompozitor SSJI kompozitorlar uyushmasining II syezdida qatnashdi. Suratlarda M.Ashrafiy syezd delegatlari T.Xrennikov, Yu. Shaporin, E.Mirzoyan, O.Taktakishvili bilan birga aks etgan. Taniqli sovet kompozitorlari D.Shostakovich, Yu.Shaporin, A.Xachaturyan-larning dastxatli fotoportretlari ham shu yerda.

Ekspozitsiyada "Sevgi tumori" baletning rang-barang dasturlari, Indira Gandi yo'llagan maktub, Indira Gandining Dehlida J.Neru mukofati laureati bilan tushgan surat (1973), Indira Gandining jajji haykalchasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Ashrafiy baletni yaratganligi uchun sazovor bo'lgan Hamza nomidagi O'zbekiston SSR Davlat mukofoti sovrindorligi diplomi, zalning markazida S.Babayan tomonidan ishlangan M.Ashrafiyning byusti mavjud⁷.

M.Ashrafiyning ijodiy yetuklik davri "Dilorom" operasidan boshlangan.⁸ Alisher Navoiyning "Yetti sayyora" poemasi mazmuni asosida yaratilgan opera jumhuriyat musiqa hayotida haqiqiy voqea bo'lib qoldi. "Shoirning qalbi" operasiga bag'ishlangan bo'lib, ular taniqli o'zbek shoiri Furqatning taqdiri haqida hikoya qiladi. "Shoirning qalbi" murakkab vazifani hal etishda opera san'ati vositasida asrimiz boshlarida Turkistondagi ijtimoiy hayotning ziddiyatli muhitini ko'rsatishda va shu asosda taniqli o'zbek shoiri, ma'rifatlarining yorqin timsolini qayta gavdalantirishda dadil tajriba sifatida e'tiborga loyiq, – deb T. Vizgo aytgandi⁹. Ekspozitsiyadan "Dilorom" premyerasining afishasi, muallif va sahnalashtiruvchilar – K.Yashin, M.Muhamedov, E.Yungvald-

⁷ Аманмурадова С. Балеты Мухтара Ашрафи//Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётдан саҳифалар (мақолалар тўплами), 2015. – 67 бет.

⁸ Радман Р.Особенности симфонических вступлений к операм Мухтара Ашрафи.// Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётдан саҳифалар (мақолалар тўплами), 2015. – 88 бет.

⁹ Мухтор Ashrafiy uy-muzeyi 2021-yilgi yillik hisobotidan.



Xilkevich, M. Musayev surati, vitrinadan esa operaning gramplastinkalar albomi, uni chet tillaridagi bo‘yoqli dasturi joy olgan.

M. Ashrafiy 1967-yilda muallif A. Xachaturyaning o‘zi ishtirokida “Spartak” baletini sahnalashtirgani kompozitor hayotidagi eng muhim voqea bo‘lib qoldi. M. Ashrafiy A. Xachaturyan bilan Moskva konservatoriyasida o‘qib yurgan kezlarida o‘rtoqlashgan va keyin ham ko‘p yillar davomida do‘st bo‘lib qolgan¹⁰. Stendda “Aram Xachaturyan” bukleti muqovasiga quyidagi dastxat bitilgan: “Qadrdon Muxtor! “Spartak” uchun senga tashakkur bildiraman hamda senga katta iste’doding yo‘lida yangi va yanada ulkan barkamollik tilab qolaman”. Musiqachilarning mashq paytidagi va balet sahnalaridan olingan fotosuratlar, vitrinalarda mamlakatning hamma tomonlaridagi ijodiy uyushmalar, tashkilotlar, bilim yurtlari yuborgan tabriknomalar qo‘yilgan.

Kompozitorning so‘nggi yirik asarlari – “Temur Malik” baleti va “Rustam haqida doston” oratoriyasidir. “Temur Malik” baletining tarixi 1970-yilda bir pardali spektakl yaratilishidan boshlanadi¹¹. “S. Ayniy poemasi o‘qib chiqish yuzasidan” yozilgan hamda atoqli tojik yozuvchisi xotirasiga bag‘ishlangan balet tojik xalqining Chingizxon qo‘shiniga qarshi qahramonona kurashi haqida hikoya qiladi. Kompozitor tomonidan Firdavsiyning “Shohnoma” poemasi mazmuni asosida yaratilgan so‘nggi yirik asar “Rustam haqida doston” oratoriyasining materiallari ham shu yerda. Stendlarda – oratoriyaning nota nashriga A. Ponomarev tomonidan ishlangan bezaklar, oratoriya klaviri. Vitrinaga kompozitorning so‘nggi dirijyorlik tayoqchasi, oratoriya musiqasi asosida M. Ashrafiyning do‘sti kompozitor B. Zeydman tomonidan yaratilgan “Rustam haqida doston” baletidan yozib olingan gramplastinkalar albomi qo‘yilgan.

To‘rtinchi zaldagi ekspozitsiyaning so‘nggi qismi teatrning direktori va badiiy rahbati M. Ashrafiy boshchiligidagi gastrol safarlariga bag‘ishlangan. 60-yillar oxiri va 70-yillar boshlarida teatr Estoniya, Belorusiya, RSFSR, Ukrainada safarda bo‘ldi.

¹⁰ Бабаев Б. Встречи с Мухтаром Ашрафи.// Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётидан саҳифалар (мақолалар тўплами), 2015. – 98 стр.

¹¹ Валерий И. Значение мемориальных музеев в воспитании молодежи// Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётидан саҳифалар (мақолалар тўплами), 2015. – 118 стр.



Ekspozitsiyaning ana shu qismida M.Ashrafiyning xorijiy teatrlar bilan aloqani yo‘lga qo‘yishdagi katta tashkilotchilik faoliyati ifoda etilgan. U A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston DAKTi sahnasida o‘ynagan italiyalik ballerina L.Kozi, Bolgariyadan kelgan xonanda N.Sharkova, Rumina opera solistkasi L.Stanesku bilan yonma-yon suratga tushgan.

Beshinchi zalda kompozitor faoliyatining o‘qituvchilik, jamoatchilik faoliyati yoritilgan. Ashrafiy o‘qituvchilik faoliyatini 1943-yildan konservatoriyada boshlab, ko‘p yillar mobaynida opera tayyorgarligi kulliyotida ishladi va oliygohga rektor etib tayinlanadi. 1951-yilda O‘zbekiston xalq artisti unvoniga ega bo‘ldi¹². Suratlarda M. Ashrafiy studiya talabalari yosh xonanda va dirijyorlar orasidagi, vitrinada kompozitorning deputatlik guvohnomasi va boshqa materiallar joy olgan.

Bastakorning pedagogik faoliyati juda katta – 30 yildan ortiq. Shu davr ichida u nafaqat respublika, balki uning chegaralaridan tashqarida ham tanilgan dirijyorlar va bastakorlarni tarbiyalagan. Ular orasida SSSR xalq artisti D.Abdurahmanova, O‘zbekiston SSR xalq artisti A.Abdughahhorov, xizmat ko‘rsatgan artistlar K.Usmonov, E.Toshmatov, X.Shamsutdinov, A.Abdugayumov, G.To‘laganov va boshqalar bor.

1946-yildan o‘zi boschilik qilgan Toshkent konservatoriyaning opera klasslari zaminida opera studiyasi tashkil etilganligi dirijyorning muhim xizmati bo‘lib qoldi. Musiqa madaniyatining taniqli arboblari R.Glier, Yu.Tyulin, G.Ginzburglarning fikrlari ekspozitsiyaga qo‘yilgan. Professor M.Ashrafiy bus-butun dirijyorlik maktabining asoschisidir. “Siz dirijyorlik mahalliy maktabiga asos slogan kishi Muxtor Ashrafiydek mahorat egasi ekanligi bilan faxrlanishingiz kerak”.¹³

M. Ashrafiyning o‘zbek sovet musiqasi va milliy san’atini chet elda targ‘ib etishdagi o‘rni beqiyos. Ekspozitsiyalar M. Ashrafiyning Hindiston, Eron, Misr, shuningdek Chexoslovakiya, Avstriya, Yugoslaviya va boshqa ko‘plab

¹² Указ Президиума Верховного Совета СССР О награждении орденами и медалями работников литературы и искусства Узбекской ССР // Советское искусство. — 1951. — № 98 (8 декабря). — 1 стр.

¹³ E.Svetlanov. Musiqani o‘zingda qiyosla. – “Правда востока”, 1985-yil 22-fevral.



mamlakatlarning musiqiy arboblari bilan bo‘lgan aloqalari haqida hikoya qiladi. Bratislavada Ashrafiy boshqargan simfonik orkestrning afishasi, Hindiston, Shri Lanka, Misrda olingan suratlar, Ashrafiyning “Hindiston kundaliklari” kitobi, kompozitorning surati bilan bosilgan chet el ro‘znoma va oynomalardan qirqib olingan sahifalar, Qohira opera orkestrining simfonik konsertlar hamda Qohira balet truppalarining M.Ashrafiy boshchiligida qo‘yilgan balet dasturlari, chet ellarda taqdim etilgan qimmatbaho sovg‘alar, musiqachining so‘nggi badiiy asari – “Musika mening hayotimda” maqolalar to‘plami diqqatni o‘ziga tortadi. Bu kitobning signal nusxasini u hayotdan ko‘z yumishidan bir necha kun oldin qo‘liga olgan.

Oltinchi zal – Xotira xonasi kompozitor ko‘p qirrali shaxs ekanligidan dalolat beradi. Kitob javonida tarix, falsafa, musiqa ilmi, stolnoma nashrlariga oid, badiiy kitoblar ko‘zga tashlanib turibdi. Javonda Ashrafiyning qo‘lyozmalari. Bu yerda yozuv stoli, ustiga N. Rimskiy-Korsakov portreti qo‘yilgan pianino bor. Kursicha ustida M.Ashrafiy hayotining so‘nggi davrlarida foydalangan narsalar turibdi. Devorlar va kitob javonlarida kompozitor qarindoshlarining, musiqachi hayoti va ijodiy yo‘lida mustahkam aloqada bo‘lgan safdoshlari va do‘stlarining fotosuratlari.

Musika saloni – Musika saloni pastki qavatdagi ikkita xonani o‘rnini egallagan. Kirish xonasini jihozlashda usta Abdullaevning yog‘ochdan tayyorlanib, sadaf qadab naqsh solingan o‘zbek milliy musiqa asboblari kolleksiyasi katta qiziqish uyg‘otadi. Shinam konsert zalida M.Ashrafiy xotirasiga bag‘ishlab kechalar o‘tkaziladi, uning yaqin kishilari, kasbdoshlari, konservatoriya talabalari shu yerda yig‘iladilar.

Bundan tashqari, muzey eksponatlari fondi noyob buyumlar bilan to‘la. Qimmatli to‘plamlar orasida xalq cholg‘u asboblari jamlanmasi alohida o‘rin tutadi. Ular milliy ansambl uchun maxsus tayyorlangan bo‘lib, xalq ustasi A. Zokirov tomonidan muzey uchun bezatilgan. Muzey ekspozitsiyasida restavratsiya qilingan qadimiy jangovar soatlar ham namoyish etilgan – ular bastakorga tegishli bo‘lgan. 1937-yilda yozib olingan “Qurilish” marshining plastinkasi o‘zbek musiqasida birinchi simfonik partitura



ohanglarini qayta eshitish imkonini beradi. Bu nodir asarlarni muzeyga O‘zbekiston SSR xalq artisti I. Mollayev sovg‘a qilgan. Tasviriy materiallar qatorida – J. Neru va Indira Gandhi haykallari, D. Kolesnikov haykaltaroshlik ishlari bilan bir qatorda ekspozitsiya “Bo‘ron” va “Dilaram” spektakllari qahramonlarining liboslari bilan ham boyitilgan. Ular Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston SSR Davlat akademik katta opera va balet teatridan olingan.

Bu muzeydagi ko‘plab eksponatlarning faqat bir qismi xolos. Ular o‘zbek sovet musiqasining manbalari va uning asoschisi – M. Ashrafiy haqida qiziqarli va tushunarli shaklda so‘zlab beradi. Diqqatga sazovorki, M. Ashrafiyning shaxsiga bo‘lgan qiziqish so‘nmayapti, bunga muzeyga keluvchilarning uzluksiz oqimi yaqqol dalildir.

Shunday qilib, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi ekspozitsiyasi nafaqat bastakorning shaxsiy hayoti va ijodiy yo‘lini yoritib beruvchi manba, balki o‘zbek professional musiqa san’atining shakllanishi va rivojlanishini aks ettiruvchi muhim madaniy-ilmiy markaz hisoblanadi. Muzeyda saqlanayotgan har bir eksponat tarixiy xotira sifatida o‘z davrining musiqiy jarayonlari, ijodiy izlanishlari va madaniy aloqalarini mujassam etadi. Mazkur ekspozitsiya yosh avlodni milliy musiqa merosiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning estetik didini shakllantirish hamda madaniy ongini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi nafaqat xotira maskani, balki ilmiy tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy tarbiya markazi sifatida ham dolzarb o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гласс Ю. Тошкент музейлари (справочник – йўл кўрсаткич) – Т.: Тошкент, “Ўзбекистон”, 1983. – 70 бет.
2. Мурадова З. Мухтар Ашрафи: Годы становления музыканта. // Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётидан саҳифалар (мақолалар тўплами). Т.: Тошкент, 2015. – 34 стр.



3. Голендер Б. Мухтар Ашрафи – Джадидот музыка. // Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётдан саҳифалар (мақолалар тўплами). Т.: Тошкент, 2015. – 39 стр.
4. Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi ma'lumotnomasi (murojaat sanasi 21.12.2022)
5. Слоним А. Музей Мухтара Ашрафи – традиции и будущее. //Музеи в изменяющемся мире: состояние, проблемы, перспективы.(материалы международного научно-практической конференции) 2020 год 16 июня, - 35 стр.
6. Аймурова Н. Через призму архитектуры// Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётдан саҳифалар (мақолалар тўплами), 2015. – 46 бет.
7. Аманмурадова С. Балеты Мухтара Ашрафи//Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётдан саҳифалар (мақолалар тўплами), 2015. – 67 бет.
8. Радман Р.Особенности симфонических вступлений к операм Мухтара Ашрафи.// Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётдан саҳифалар (мақолалар тўплами), 2015. – 88 бет.
9. Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi 2021-yilgi yillik hisobotidan.
10. Бабаев Б. Встречи с Мухтаром Ашрафи.// Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётдан саҳифалар (мақолалар тўплами), 2015. – 98 стр.
11. Валерий И. Значение мемориальных музеев в воспитании молодежи// Мухтор Ашрафий ва Ўзбекистон маданий ҳаётдан саҳифалар (мақолалар тўплами), 2015. – 118 стр.
12. Указ Президиума Верховного Совета СССР О награждении орденами и медалями работников литературы и искусства Узбекской ССР // Советское искусство. — 1951. — № 98 (8 декабря). — 1 стр.
13. E.Svetlanov. Musiqani o'zingda qiyosla. – “Правда востока”, 1985-yil 22-fevral.

